



# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz  
@ferghana\_medical\_institute  
@farjsti

5-  
aprel  
2025-yil  
shanba

Nº3 (40)

E'tirof

## BIR MILLION DOLLARLIK INVESTISIYA



Birlashgan Arab Amirliklarining Gulf tibbiyot universiteti jahondagi eng nufuzli TOP-500 olyi o'quv yurtlari qatoridan joy olgan.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti mazkur muassasa bilan birgalikda "Doctor of medicine" (terapiya) mutaxassisligi bo'yicha magistratura yo'nali shida qo'shma ta'lif dasturini ishga tushirdi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda Farg'onaga tashrif buyurgan Gul' tibbiyot universiteti hamda Tumbay universiteti prezidenti Tumbay Mo'ydin boshchiligidagi delegasiya ishtirok etdi.

Muloqotda xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, ilmiy sohadagi aloqalarni kengaytirish, ta'lif jarayoniga eng so'nggi innovasiyalarni joriy etish istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, uchrashuvda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rektori Akmal Sidikov bu hamkorlik yurtimizda tibbiy ta'lif rivoji uchun katta ahamiyatga egaligi hamda ta'lif eksporti orqali 5 yil davomida yiliga qo'shimcha 1 million dollardan investisiya jaib qilish imkoniyati yuzaga kelishini qayd etdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qo'shma ta'lif dasturi

doirasida magistratura bosqichida ta'lif oluvchi talabalar Buyuk Britaniyaning "QualityAssurance Agency" tashkiloti tomonidan akkreditasiyadan o'tkaziladigan xalqaro diplomga ega bo'ladi. Bu esa ularga dunyo miyosda tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Ta'lif jarayoni ingliz tilidagi zamonaviy o'quv dasturlari asosida olib boriladi. Binobarin, kelgusida talabalar almashinuvni yo'lga qo'yilib, qo'shma ilmiy loyi halar amalga oshirilishi hamda xalqaro konferensiylar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

S.TURSUNOV.

## Institutimizda nima gaplar?



### INSTITUT REKTORI AKMAL SIDIKOV DAN TALABALARGA 10 TA OLTIN MASLAHAT

Hurmatli talabalar! Tibbiyot sohasiga qadam qo'yaningiz bilan yana bir karra tabriklayman! Siz tanlagan yo'l mashaqqatli, lekin shu bilan birga, juda sharaflı kasbdir. Kelajakda haqiqiy mutaxassis bo'lishingiz uchun quyidagi maslahatlari sizga asqatadi:

1.O'zingizga sarmoya kiriting – kitob o'qish, ilmiy maqolalarni o'rghanish va yangi bilimlarni o'zlashtirishdan aslo charchamang!

2.Amaliyatga e'tibor bering – faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmang. Shifoxonalar, laboratoriylar va amaliy mashg'ulotlarda faol bo'ling.

3.Tashabbuskor bo'ling – ilmiy loyihibar va tadqiqotlarga qo'shiling, yangi g'oyalalar bilan institut hayotida faol ishtirok eting.

4.Vaqtingizni to'g'ri boshqaring – rejulashtirish muvaffaqiyat kalitidir. Kundalik reja tuzing va uni intizom bilan bajaring.

5.Savol berishdan qo'rwmang – hech qachon uyalmang! Yaxshi shifokor har doim o'rghanishga tayyor bo'lishi kerak.

6.Hamkorlikni o'rGANING – jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiring, chunki tibbiyot – bu jamoaviy ish.

7.Texnologiyalarni quvib yeting – zamonaviy tibbiyot kun sayin rivojlanmoqda. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan tanishib boring.

8.Stressni boshqara biling – shifokorlik – bu nafaqat bilim, balki sabr va ruhiy bardoshlilik kasbidir. Meditatsiya, sport yoki sevimli mashg'ulotlaringiz bilan shug'ullaning.

9.Sog'lig'ingizga e'tibor bering – sog'lon turmush tarzini saqlash, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faoliyat sizning ham, bemorlaringizning ham hayoti uchun muhim.

10.Doimiy rivojlaning – bugungi o'rGANILGAN bilim ertaga eskirishi mumkin. Shuning uchun doimiy izlanish, yangi texnologiyalar va tadqiqotlar bilan tanishib boring!

## O'ZBEKISTON CHAMPIONLARI



Qadrondon institutimizning 2 nafar faxri — Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti talabasi Sherzodbek Ma'murov (Taekwondo bo'yicha) va davolash ishi fakulteti talabasi Muhammadyusuf Vohidovlar (Muay - tay bo'yicha) O'zbekiston championi bo'ldi.

Ularning ustozlarini, ota-onasini chin dildan samimiy tabriklaymiz!



### E`tirof HINDISTONLIK A'LOCHI QIZ – SHRUTI SHREYE

**Hayotbaxsh islohotlar samarasi sifatida 2020-yili o'z faoliyatini boshlagan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dunyoning 40 ga yaqin olyi ta'lim muassasalari bilan o'quv, ilmiy va ma'rifiy sohalarda hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirib bormoqda. Ta'lim muassasasi 2023-yili dunyoning "Top –1000" talik olyi bilim dargohlari ro'yxatiga kiritilgan.**

Bugungi kunda institutning bakalavriat yo'nalishida 5000 nafardan ziyod talaba tahsil oladi. Quvonarlisi, ularning 1000 nafardan ortiq'i xorijlik talabalardir. Shu bilan birga 20 nafarga yaqin xorijlik pedagoglar ham ishga jalb etilgan.


Ayni kunlarda institutda Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Kanada, Rossiya, Afg'oniston, Nigeriya, Qирг'изистон va Tojikiston kabi 10 dan ortiq davlatlardan kelib ta'lim olayotgan yigit-qizlar bor. Hindistonlik a'lochi qiz Shruti Shreye ikkinchi bosqich talabasi. U o'qish uchun ushbu institutni tanlaganidan behad mammun.

— O'tgan qisqa davrda O'zbekiston ikkinchi uyimga aylandi, — deydi hindistonlik talaba. — Farg'ona tabiat, mehmondo'st va samimiylar insonlari menha yoyqib qoldi. Darslar xalqaro talablarga muvofiq to'liq ingliz tilida o'tiladi. Shu tariqa institut nafaqat tibbiyot sohasida chuqur bilim olish, balki professional va shaxsiy rivojlanishim uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu yerda o'quv jarayoni yuqori darajada tashkil etilgan bo'lib, nazariy bilimlarni zamonaviy laboratoriylar va amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish imkoniyatiga egamiz. Professor-o'qituvchilar juda bilimli, mehribon va har doim bizga yordam berishga tayyor. Ularning har bir darsi kelajakda haqiqiy professional shifokor bo'lishga undaydi.

Institutda xorijdan kelgan talabalar uchun jahon andozalari darajasida zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Yotoqxonalar qulay hududda joylashgan. O'quv binolari eng so'nggi rusumdagagi tibbiy asbob-uskulalar, texnologiyalar bilan jihozlangan. Muntazam ravishda o'tkaziladigan ilmiy va madaniy tadbirlar yordamida turli millat vakillari bilan do'stlashish, yangi madaniyatlarni o'rganish imkoniga ega bo'lmoqdam. Ayniqsa, xalqiningning milliy qadriyat va an'analarini, bayramlari o'ziga xos.

Professor-o'qituvchilarimiz boshchiligidagi hududlarda bepul tibbiy ko'rniklar o'tkazib, nazariy bilimlarimizni amaliyotda mustahkamlab borayotganimiz ham e'tiborga loyiq. Dual ta'lim tizimi bo'yicha institutdagi klinikada malaka oshirib, bir paytning o'zida ham o'qish, ham bo'lajak shifokor sifatida faoliyat olib borish uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan.



## KELING, KO'RING! «NASTARIN» SIZNI KUTADI!

Teatr – bu nafaqat so'z va harakat, balki yurakning tilga kirishi, his-tuyg'ularning sahnada jonlanishi. Kimdir teatrni tushunadi, kimdir uni his qiladi, yana kimlardir unda yashaydi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining «Nastarin» talabalar teatr studiyasi – bu shunchaki jamoa emas, bu iste'dod va san'at uyg'unlashgan maskan. Bu yerda har bir rol jonlanadi, har bir qahramon tirik gavdalanadi, har bir chiqish esa tomoshabin qalbida unutilmas iz qoldiradi.

Bu jamoa o'z kuchini allaqachon isbotlagan. 2021-yilda sahnalashtirilgan «To'maris» spektakli eng yaxshi talabalar spektakli deb e'tirof etilgan. «Qiyomat» esa ko'plab tomoshabinlarning qalbini

larzaga solib, insonni hayot va qadr haqida chuqur mushohadaga chorlagan.

Ha, vaqt o'tishi bilan «Nastarin» bir muddat sahnadan chekingandek bo'ldi. Ammo san'at so'nmaydi, iste'dod yo'qolmaydi. Bugun «Nastarin» yanada kuchli, yanada ilhomli, yanada qudratli holda qaytdi. Endi bu yerda yangi nigohlar, yangi ovozlar, yangi shioat va yangi mo'jiza bor.

«Nastarin» sizni G'afur G'ulom asosi sahnalashtirilgan «Shum bola» spektakli bilan hayratga solishga tayyor. Bu shunchaki spektakli emas – bu bolalik sho'xligi, beg'ubor samimiyat va hayot haqiqatlari aks etgan san'at durdonasi.

**Keling, ko'ring! «Nastarin» sizni kutadi!**

USHBU SAHIFADA: INSTITUTNING MALAKALI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, TALABALARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI YORITIB BORILADI.

# "SOG'LOM HAYOT" SAHIFASI

## *Tabassum bilan davolaymiz*



Ra'noxon AHMADJONOVA,  
tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi  
1-bosqich talabasi.

Mamlakatimizga fasllar qirolichasi bo'lgan bahor fasli kirib kelib hamma joyni chiroyga burkadi, atrof go'zalligi ham insonga o'zgacha kayfiyat ularshadi va yuziga kulgu bag'ishlaydi. Aslini olganda har bir tabassumimiz ham salomatligimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tabassum – bu oddiy bir imo-ishora emas, balki organizm uchun haqiqiy shifo manbai hisoblanadi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, insonning kayfiyati va salomatligi o'rtaida kuchli



bog'liqlik mavjuddir. Ayniqsa, tabassum va kulgi tanadagi ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirib, immunitetni mustahkamlash, stressni kamaytirish va hatto og'riqni yengillashtirishga yordam beradi.

### TABASSUMNING FOYDASI

Stress va depressiyaga qarshi qurol – bu tabassum hisoblanadi. Tabassum qilish tanada endorfin, serotonin va dopamin kabi baxt gormonlarini chiqarishga yordam beradi. Bu esa kayfiyatni yaxshilaydi va depressiyaning oldini oladi. Tadqiqotlar shuni ko'ssatadiki, hatto majburan jilmayish ham miyaning ijobiy signal olishiga sabab bo'lishi mumkin. Immun tizimini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Qahqaha yoki shunchaki samimi kulgu immunitetni kuchaytirib, tanani kasalliklarga qarshi chidamli qiladi. Olimlar kulgi qondagi oq qon hujayralarining faolligini oshirishi, bu esa virus va bakteriyalarga qarshi samarali kurashish imkonini berishini aniqlashgan. Yurak-qon tomir tizimi uchun ham tabassum juda foydali hisoblanadi.

Kulgi yurak urishini barcarorlashtiradi, qon bosimini me'yorda ushlab turadi va qon aylanishini yaxshilaydi. Natijada yurak xastaliklarining oldini olishga yordam beradi. Og'riqni kamaytirish xususiyati ham

bu tabassumning eng ijobiy ta'sirlaridan hisoblanadi. Tabassum va kulgi organizmda tabiiy og'riq qoldiruvchi moddalarning ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi. Endorfin – tabiiy og'riq qoldiruvchi va quvonch gormoni hisoblanadi. Yendorfinlar og'riqni kamaytirish va stressni yengillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, insonda zavq va quvonch hissini uyg'otadi. Masalan, sport bilan shug'ullanganda yoki kulgili narsaga kulganimizda endorfin ajralib chiqadi.

### TABASSUM TERAPIYASI

Hozirgi kunda ba'zi shifoxonalar bemorlarni davolash jarayonida «tabassum terapiysi»ni qo'llay boshlagan. Masalan, shifok va hamshiralar bemorlarga iliq muomala qilishadi, ularga kulgili voqealar aytil berishadi yoki maxsus hazil-mutoyibali muhit yaratishadi. Bu usul ayniqsa, bolalar va ruhiy tushkunlikka tushgan bemorlar uchun samarali hisoblanadi.

Shuningdek, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda «kulgi yog'ochi» (Laughter Yoga) kabi dasturlar ommalashib, ular insonlarni muntazam ravishda jilmayish va kulishga o'rgatadi. Bu esa organizm uchun tabiiy shifo bo'lib xizmat qiladi.

Inson kayfiyati turli omillarga bog'liq, biroq eng katta ta'sirini organizmimizda ishlab

chiqariladigan gormonlar o'ynaydi. Ular kayfiyatimizni boshqarib, stress, baxt, xavotir yoki tinchlik hissini uyg'otishi mumkin. Quyida asosiy gormonlar va ularning kayfiyatga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Baxt gormonlari ya'ni kayfiyatni ko'taradigan moddalardan biri bu serotonin – tinchlik va baxt gormoni hisoblanadi.

Serotonin organizmimizdagi muhim neyrotransmitterlardan biri bo'lib, kayfiyatni barqaror saqlashda muhim rol o'ynaydi. Yetarli darajada serotonin bo'lsa, inson o'zini baxtli va xotirjam his qiladi. Kamliqi esa depressiya, tushkunlik va xavotirga sabab bo'lishi mumkin. Serotoninning qanday oshirish mumkin degan savolga mutaxassislar quyidagicha javob beradi:

Quyosh nuri ostida sayr qilish insonda hotirjamlik hissini paydo qiladi va serotonin gormoni ishlab chiqarilishini tezlashtirib beradi.

Magniy va triptofan (tovuq go'shti, banan, yong'oq) iste'mol qilish ham serotonin gormoni hosil bo'lishiha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan salomatligingizni saqlash va sog'lam bo'lish uchun hech qachon tabassum qilishdan to'xtamang. Atrofingizdag'i insonlarga ham doim tabassum ularshing va ularni sog'ligiga ham o'z hissangizni qo'shing!



Ammo ularga o'z vaqtida e'tibor berilmasa, tish va og'iz bo'shilg'iда turli xastaliklar rivojlanishi mumkin.

Tish-tosh kasalligi shular jumlasidan. U tish sirtidagi sarg'ish yoki kulrang (kashandalarda jigarrang, hatto qoramtr) qatlam hisoblanib, milk ustti va ostida, tish bo'ynida hosil bo'ladi.

Toshlar to'satdan paydo bo'lmaydi. Asosan og'iz gigiyenasiga yetarlicha g'amxo'rlik qilinmaganda kuzatiladi. Qolaversa, tishlar shakli, ovqatni chaynashda uni noto'g'ri taqsimlash, so'lak tarkibidagi o'zgarishlar, qattiq yeguliklar yetishmasligi, tamaki chekish, kuchli choy va qahvani ko'p ichish natijasida ham kelib chiqadi. Oqibatda tishlarda dastlab oqimtir qarashlar ko'zga tashlanadi.

Tosh to'g'ri tozalanib, yuvilganda yoki qattiqroq ovqat chaynalganda

### Sog'lam tishlar insonga husn va chiroyli tabassum hadya etadi



osonlik bilan ko'chib tushishi mumkin. Ba'zan uning ichki yuzasini qoplab emal qismiga singib ketadi. Shu bois toshni ko'chirish ancha qiyin. Bu esa asta-sekin milkni ezib qo'yadi va ular qonaydigan, og'izdan qo'lansa hid keladigan bo'lib qoladi. Shuningdek, yiring ajralib, milk shilliq pardasining yallig'lanishi (gingivit) va parodontozga olib keladi.

Tishda tosh paydo bo'lishining oldini olish uchun ovqatni me'yorida chaynash (hamma tishlar bilan), suvi qochgan non, sabzi, olma yeb turish lozim. Qolaversa, kasal tishlar va yallig'langan milkni o'z vaqtida davolash, yo'q tishlar o'rnini to'ldirish zarur. Qolaversa, ularni kunda 2 marta sifatlari tish pastasi bilan yuvish hamda vaqt-vaqt bilan stomatolog ko'rigan o'tib turish maqsadga muvofiq.

S.TURSUNOV.

# "OQ MOYCHECHAK" –

## *tuberkulyozga qarshi kurashish ramzi*

24-mart - Butunjahon  
tuberkulyozga qarshi kurash  
kuning ramzi moychechak  
gulidir. Xo'sh, nega aynan  
moychechak guli?

Tuberkulyoz kasalligi butun dunyoda yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Kasallik aniqlanganidan shu kungacha tuberkulyozga qarshi kurashning turli usullari va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Tuberkulyoz tayoqchasi aniqlangan kun — 24-mart Butunjahon tuberkulyozga qarshi kurash kuni etib belgilangan. Bu kunda har bir mamlakatda turli tadbirdilar o'tkaziladi. Tadbiriga taklifnomalar sifatida moychechak guli taqdim etiladi. Butunjahon tuberkulyozga qarshi kurash kunining ramzi ham moychechak gulidir.

### Tarixga nazar

Moychechak gulining ramziy ma'nosi tarixga borib taqaladi. 1882-yilda tuberkulyoz kasalligini qo'zg'atuvchi bakteriya aniqlangach, undan yuz yil o'tib, tuberkulyoz kasalligi epidemiya darajasiga yetadi. Yevropa davlatlari va Rossiya aholisi tuberkulyoz kasalligi bilan yoppasiga og'riy boshladilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib butun dunyoda tuberkulyozga qarshi chora-tadbirlar keng ko'lamma amalga oshirila boshlandi. Yevropa hukumati tuberkulyozga qarshi kurashning eng samarali usuli sifatida xayriya fondi tashkil etishni taklif qilishdi. Xayriya fondiga Yevropaning eng nufuzli tashkilotlari jaib qilindi. Lekin tuberkulyoz epidemiyasi shu qadar kuchayib borayotgan ediki, xayriya fondlarida yig'ilgan mablag' xarajatlarni qoplamay qo'ydi.

Nihoyat 1900-yilda Shveysariyada "Oq moychechak" loyihasi ishlab chiqildi. 1901-yil 1-mayda Jeneva ko'chalarida birinchi marta oq moychechak tutgan qizlar ko'chalar bo'ylab namoyish tashkil etishadi.



Фото: sh-ptd.kurgan-med.ru

Moychechaklarni erkin nafas ramzi sifatida aholiga sotishadi. Moychechak gulini sotish jarayonida "oilangizga sog'lik tilaymiz", "yaqinlaringizni tuberkulyozdan ehtiyoq qiling", "moychechak — erkin nafas garovi" singari so'zlar ham aytilan.

### Ulkan daromad manbai

Oq moychechakning tuberkulyozga qarshi kurash ramzi sifatida sotilishi aholi e'tiborini tortadi va tuberkulyozga qarshi kurash tashkilotlari misli ko'rilmagan daromad keltiradi.



Bu odad Shveysariyadan Norvegiya, Islandiya, Daniya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga ham ko'chadi. Hatto Daniya va Norvegiyada oq moychechak sotish huquqi tuberkulyozga qarshi jamiyatlarning monopoliyasiga ham aylangan.

1909-yilda Rossiyaning Moskva shahrida tuberkulyoz kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha birinchi bepul poliklinika ochilgan. Poliklinikada shifokorlar bepul

ishlashgani tarixdan ma'lum. "Oq moychechak" namoyishi Rossiyada butun mamlakat bo'ylab 1911-yilning 20-aprelida o'tkaziladi. Moskvada minglab plakatlar va broshyuralar aholiga tarqatiladi. Oq moychechak sotish, u bo'limganda qog'ozdan yasalgan moychechak sotish ham ommalashib ketadi. Bunday gullar uchun to'lov kun sayin ortib boradi.

Tashkil etilgan tadbirdarda ishtirok etgan qizlarning bosh kiyimlari, sochlariqa oq moychechak taqilgan, ko'yaklari esa moychechak bilan bezatilgan edi.

### Nega aynan moychechak?

Xo'sh, nega aynan moychechak guli deb o'ylayotgandirsiz? Tuberkulyoz kasalligini davolashda asosan bakteriyalarini o'ldirish xususiyatiga ega bo'lgan antibiotiklardan foydalilanildi. Moychechakning foydalı xususiyatlari ko'pligi uchun xalq tabobatida «tabiiy antibiotik» deb ham ataladi. Shu bilan birga, moychechak guli Yevropada mehr-muhabbat va xayr-saxovat ramzi hamdir.

Shuning uchun ham minglab odamlarga yordam sifatida tashkil etilgan tadbirdarning eng munosib ramzi moychechak guli deb topilgan.

### Tuberkulyozga qarshi kurashish O'zbekistonda

O'zbekistonda tuberkulyozga qarshi kurashuvchi birinchi dispanser 1935-yilda Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan. Bugungi kunda O'zbekiston ham Butunjahon tuberkulyozga qarshi kurash tashkilotiga a'zo. 24-mart kuni mamlakatimizda ham tuberkulyozga qarshi kurash tadbirdulari tashkil etilib, unga taklifnomalar sifatida oq moychechak guli beriladi.

Siz ham tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashda o'z hissangizni qo'shamoqchi bo'lsangiz, 24-mart kuni tashkil etilgan tadbirdarda oq moychechak xarid qilishni unutmang!

**I.ABDUJABBOROV.**

